



THE ROLE OF VALUES IN THE FORMATION OF MORAL AND AESTHETIC CULTURE

Gulchekhra Shadimetova

Associate Professor, PhD

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: values, moral and aesthetic culture, upbringing, spirituality, aesthetic education, young generation, art, literature, education system, national heritage.

Received: 06.05.25

Accepted: 08.05.25

Published: 10.05.25

Abstract: This article analyzes the role of values in shaping moral and aesthetic culture from both scientific-theoretical and practical perspectives. It substantiates that moral and aesthetic culture is a crucial factor in an individual's spiritual development and in establishing a healthy social environment within society. Values are examined not only as moral criteria but also as forces that shape aesthetic taste. The article reveals the mechanisms of transmitting moral and aesthetic values to the younger generation through literature, art, education, and family upbringing. Through conclusions and recommendations, ways to further enhance this process are outlined.

QADRIYATLARNING AXLOQIY-ESTETIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Gulchekhra Shadimetova

dotsent, PhD

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: qadriyatlar, axloqiy-estetik madaniyat, tarbiya, ma'naviyat, estetik tarbiya, yosh avlod, san'at, adabiyot, ta'lif tizimi, milliy meros.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadriyatlarning axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Axloqiy-estetik madaniyat shaxsning ma'naviy kamolotida va jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni qaror toptirishda muhim omil ekani asoslab beriladi. Qadriyatlar – bu nafaqat

axloqiy mezon, balki estetik didni shakllantiruvchi kuch sifatida qaralgan. Maqolada adabiyot, san'at, ta'lif va oilaviy tarbiya orqali axloqiy-estetik qadriyatlarning yosh avlodga uzatilish mexanizmlari ohib berilgan. Xulosa va takliflar orqali ushbu jarayonni yanada takomillashtirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

РОЛЬ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ НРАВСТВЕННОЙ И ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Гульчехра Шадиметова

Доцент, PhD

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: ценности, нравственно-эстетическая культура, воспитание, духовность, эстетическое воспитание, молодое поколение, искусство, литература, система образования, национальное наследие.

Аннотация: В данной статье анализируется роль ценностей в формировании нравственно-эстетической культуры с научно-теоретической и практической точек зрения. Обосновывается, что нравственно-эстетическая культура является важным фактором духовного совершенствования личности и установления здоровой социальной среды в обществе. Ценности рассматриваются не только как нравственный критерий, но и как сила, формирующая эстетический вкус. В статье раскрываются механизмы передачи нравственно-эстетических ценностей молодому поколению через литературу, искусство, образование и семейное воспитание. На основе выводов и предложений указаны пути дальнейшего совершенствования данного процесса.

Kirish: Qadriyatlarning axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirishdagi o'rni jamiyat va shaxs taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Qadriyat «inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagи voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha»dir [1]. Qadriyatlar – bu insonlar hayotida ma'naviy-axloqiy mezon sifatida xizmat qiluvchi, ularning xatti-harakatlari, dunyoqarashi va qarorlariga yo'naltiruvchi tamoyillardir. Ular shaxsning ichki olamini boyitib, estetik didini shakllantiradi, axloqiy mezonlar asosida to'g'ri hayotiy yo'l tanlashiga yordam beradi.

Axloqiy-estetik madaniyat deganda, nafaqat odob-axloq qoidalarini bilish, balki ularni hayotda qo'llash, go'zallikni anglash, qadrlash va uni yaratishga intilish tushuniladi. Qadriyatlar

esa, ana shu madaniyatning asosiy manbai sifatida xizmat qiladi. Masalan, milliy, diniy, umuminsoniy qadriyatlar – mehr-oqibat, halollik, poklik, go‘zallikka intilish, sabr-toqat, adolat va vatanparvarlik singari tushunchalar axloqiy-estetik madaniyatni boyitadi va mustahkamlaydi.

Qadriyatlar avloddan-avlodga o‘tuvchi ijtimoiy-ma’naviy meros bo‘lib, yoshlarning tarbiyasida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar bu qadriyatlar ta’lim-tarbiya jarayoniga uyg‘un kiritilsa, barkamol avlodni tarbiyalash, ularda estetik did va axloqiy tamoyillarni shakllantirish osonlashadi. Xususan, san’at, adabiyot, teatr, musiqa va boshqa estetik vositalar orqali qadriyatlar ifodalanadi hamda yoshlar ongiga singdiriladi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, qadriyatlarning axloqiy-estetik madaniyatni rivojlantirishdagi o‘rni nafaqat tarbiya jarayonida, balki san’at, adabiyot, musiqa kabi estetik vositalar orqali ham o‘z aksini topadi. Axloqiy-estetik madaniyat qadriyatlar orqali shakllanadi va bu yosh avlodda ezgulik hamda go‘zallikni anglash, ma’naviy yuksalish istagini uyg‘otadi.

Mavzuning dolzarbli shundan iboratki, globallashuv sharoitida ba’zi zararli axborot oqimlari ta’sirida qadriyatlar susayishi mumkin, bu esa yoshlar ongida axloqiy va estetik bo‘shliq paydo qilish xavfini tug‘diradi. M.M. Hasanova bu borada shunday yozadi: «Qadriyatlar va estetik ong uyg‘unligi shaxsnинг ma’naviy immunitetini mustahkamlashda muhim omildir» [2]. Shu bois, qadriyatlarning axloqiy-estetik madaniyat shakllanishidagi o‘rnini o‘rganish va uni yoshlar tarbiyasiga uyg‘un kiritish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, qadriyatlar axloqiy-estetik madaniyatning mazmunini belgilab beradi, uning rivojlanishiga yo‘l ochadi va jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-axloqiy muhitni qaror toptirishda tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili: Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, qadriyatlarning axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirishdagi o‘rni masalasi bugungi kunda dolzarb masalalardan bo‘lib, mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari davomida o‘rganilmoqda. Faylasuf professor M.Nurmatova tomonidan «Axloqiy va estetik madaniyat» o‘quv qo‘llanmasida axloqiy va estetik madaniyatning shakllanishi hamda taraqqiyoti, ularning o‘zaro aloqadorligi, o‘ziga xos xususiyatlari, mavjudlik shartlari va mezonlari, funksiyalari va tamoyillari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Unda axloqiy va estetik madaniyatning turmush tarzida namoyon bo‘lish xususiyatlari, nutq va notiqlik axloqiy va estetik madaniyatning muhim mezoni ekanligiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, M.Jo‘rayev hamda D.X.Axmedovalarni asarlarida ham axloqiy-estetik madaniyat va qadriyalar keng o‘rganiladi. Xususan, M.Jo‘rayevning «Axloqiy-estetik madaniyat va qadriyatlar» risolasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri axloqiy-estetik madaniyat va qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni tahlil qiladi. Muallif qadriyatlarni estetik anglash mezonlari, tarbiya jarayonidagi aks-sadosi va madaniy ifodasi jihatidan ko‘rib chiqadi. Ayniqsa, oilaviy qadriyatlар, urf-odatlar va estetik tuyg‘ularning bog‘liqligi bo‘yicha muhim ilmiy asoslar berilgan.

D.X.Axmedovaning «Estetik tarbiya va axloqiy qadriyatlar» asarida ta’lim va tarbiya muassasalarida estetik tarbiya orqali axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy va metodik asoslarini bayon qiladi. Ayniqsa, yosh avlodga go‘zallikni anglash, milliy estetik tafakkur va tarbiya jarayonida san’atning o‘rni kabi masalalarni tahlil etgan. Kitob o‘qituvchilar, tarbiyachilar va tadqiqotchilar uchun muhim qo‘llanmadir va maqolada amaliy jihatdan asos bo‘lib xizmat qiladi

Tahlil va natijalar: Bizga ma’lumki, har bir xalqning o‘ziga xos qadriyatlar silsilasi mavjud bo‘lib, u xalqning ko‘zgusi hisoblanadi. Shuning asosida millatning turmush tarzida, madaniyati va ma’naviyatida, ongu shuurida, o‘zaro muloqotida aks etib, o‘z ifodasini topadi. Qadriyatlar har bir xalqning qon-qonigacha singib, insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi va millat, elat hamda ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiluvchi, ular tomonidan qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari hodisalar hamda tarbiya o‘zagidir. Milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash – millatning o‘ziga hurmat bilan qarashning asosiy bo‘g‘inidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklar bilan qo‘silib taraqqiyotimizni tezlatadi, g‘oyaviy va ma’naviy poklanishni ta’minlashga ko‘maklashadi. Shuning uchun ham qadriyatlarni avaylab asrash, ularni qo‘riqlash, yuksaltirish alohida inson hayotida ham jamiyat taraqqiyotida ham katta ahamiyat kasb etadi.[3]

Qadriatlarning axloqiy-estetik madaniyatdagi o‘rni, eng avvalo, shaxsning ichki olami – qalb dunyosini go‘zallikka va ezbilikka yo‘naltirishda namoyon bo‘ladi. Qadriyatlar orqali inson o‘zining kimligini anglaydi, jamiyatda tutgan o‘rnini belgilaydi va axloqiy mezonlarga tayanadi. Shuning uchun ham qadriyatlari – bu oddiy tushuncha emas, balki jamiyatning madaniy va axloqiy ustunlaridan biridir. Ular orqali inson o‘z estetik didini tarbiyalaydi, go‘zallikni ko‘ra olish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi [4].

O‘zbekistonning milliy qadriyatlari – tarixiy-madaniy meros, urf-odatlar, diniy e’tiqod va ajdodlar an’analariga tayangan holda shakllangan. Bu qadriyatlari har doim jamiyat taraqqiyotida estetik va axloqiy barqarorlikni ta’minlab kelgan. Masalan, Navro‘z, Ramazon, Qurbon hayitlari nafaqat diniy-ma’naviy qadriyat, balki estetik va axloqiy qadriyatlari manbai sifatida xalqni birlashtiradi.

O‘zbek xalqi turmush tarzida axloqiy-estetik madaniyatning moddiy va ma’naviy jihatlarining uyg‘un bo‘lishiga e’tibor qaratilganini bir qancha udumlar, an’analar va urf-odatlarda aks etadi. Bu haqida O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov: “Biz turli zamonlarda turlicha siyosatdan kelib chiqib, muayyan g‘oyalarni mafkura darajasiga ko‘taramiz, qonunlashtiramiz. Udum ham qonun. Udum ham mafkura. O‘zbek udumlari yozilmagan qonunlar bo‘lsa-da, hamisha yashaydi va ishlaydi. Bu abadiy mafkura! Nazarimda bizni ming yillar davomida balo-qazolardan asrab kelgan ham, boshi berk ko‘chalarga kirib

qolmasligimizni ta'minlagan ham shu udum, an'ana, xalqona donishmandlik namunasi bo'lган buyuk didaktikadir" deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat o'zbek xalqi axloqiy-estetik madaniyatini xalq udumlari, odatlari, o'yinlari, dam olish madaniyati, pazandaligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobatisiz tasavvur etib bo'lmaydi.[5]

Qadriyatlar axloqiy-estetik madaniyatning ichki mazmunini belgilovchi mezon bo'lib, ular nafaqat individual, balki ijtimoiy hayotda ham muhim o'rinni tutadi. Axloqiy qadriyatlar – insoniylik, halollik, adolat, vijdon, mehr-oqibat kabi tushunchalarini o'z ichiga olsa, estetik qadriyatlar – go'zallikni anglash, nafislik, uyg'unlik va badiiy did kabi mezonlar bilan bog'liqdir. Har ikki toifa qadriyatlar jamiyatda axloqiy mezonlarni shakllantirish va mustahkamlashda uзвиy bog'liq holda harakat qiladi. Shuning uchun, bu qadriyatlar orasida sun'iy tafovut qilish emas, balki ularning uyg'unligini ta'minlash muhimdir.

Estetik madaniyatning shakllanishida san'at alohida o'rinni tutadi. Masalan, o'zbek xalq og'zaki ijodidagi dostonlar (Alpomish, Go'ro'g'li), maqollar va qo'shiqlar nafaqat axloqiy g'oyalarga boy, balki estetik ifoda vositalari bilan boyitilgan. Ushbu asarlar orqali yoshlar nafaqat vatanparvarlik, fidoyilik, sabr, sadoqat kabi qadriyatlarni o'zlashtiradi, balki san'at orqali ularning nafis estetik didi ham shakllanadi.

Adabiyot ham axloqiy-estetik qadriyatlarni yetkazishda kuchli vositadir. Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qodiriy, Oybek, Erkin Vohidov kabi adiblar ijodida axloqiy-ruhiy kechinmalar, milliy qadriyatlar, estetik obrazlar uyg'un tarzda aks etgan. Masalan, Erkin Vohidovning "O'zbegim" she'rida ifodalangan milliy iftixon tuyg'usi, qadimiy madaniyatga bo'lган hurmat axloqiy-estetik qadriyatlar asosida bunyod etilgan. Bu she'r yoshlarning Vatanga muhabbat, milliy o'zlik, badiiy did va so'z san'atini qadrlash hislarini uyg'otadi.

Shuningdek, tasviriy san'atda ham qadriyatlar estetik vositalar orqali ifodalanadi. Ma'lumki, Kamoliddin Behzodning miniatyurlarida nafaqat tasviriy go'zallik, balki ichki axloqiy tarbiya, ma'naviy hushyorlik, madaniy xotira aks etgan. Bu asarlar yosh avlodga madaniyatimiz chuqur ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi. D.X. Axmedova bu borada: «Tasviriy san'at qadriyatlarning estetika bilan uyg'unlashgan shakli bo'lib, u yoshlar ongiga ongli ravishda emas, balki ko'ngil orqali singadi», deb ta'kidlaydi [6].

Ta'lim tizimida esa qadriyatlar estetik vositalar orqali o'rgatilsa, bu tarbiya jarayonini yanada samarali qiladi. O'quv dasturlariga milliy adabiyot, musiqiy meros, xalq og'zaki ijodi, tasviriy san'at kabi estetik yo'nalishdagi fanlar asosida qadriyatlarni singdirish, yoshlarda axloqiy va estetik qarashlarning uyg'un shakllanishiga olib keladi. Maktablardagi «Ma'naviyat darslari», «Tarbiya soati» yoki «Adabiyot haftaligi» kabi loyihalar orqali estetik tarbiya va qadriyatlar uзвиy bog'lanmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va mass-media vositalari axloqiy-estetik madaniyatga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Afsuski, ba'zan bu vositalarda go'zallik tushunchasi sun'iy talqin qilinib, real qadriyatlar emas, balki iste'molchilikka asoslangan estetik me'yorlar targ'ib qilinadi. Shuning uchun yosh avlod qalbiga chin estetik qadriyatlarni singdirish uchun madaniy filmlar, milliy teatrlar, badiiy ko'rgazmalar, musiqiy anjumanlar kabi vositalar muhim rol o'ynashi lozim.

Shu bilan birga, qadriyatlar orqali shakllangan axloqiy-estetik madaniyat nafaqat shaxsni tarbiyalaydi, balki butun jamiyatning madaniy va axloqiy taraqqiyotini belgilaydi. Agar qadriyatlar sog'lom asosga qurilgan bo'lsa, u holda jamiyatda ham axloqiy intizom, estetik uyg'unlik va ijtimoiy birdamlik qaror topadi.

Shuningdek, oila institutida qadriyatlarning roli alohida ahamiyatga ega. Oila – birinchi tarbiya maktabi bo'lib, unda axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi. Ota-onada mehr-muhabbati, oilaviy rishtalardagi hurmat, halollik va tartib-intizom bolada ma'naviy mezonlar, go'zallikka nisbatan did va hushyorlik uyg'otadi. *Oila – qadriyatlar uzlucksizligining asosiy bo'g'ini. Undagi axloqiy va estetik tajribalar jamiyatning madaniy darajasini belgilaydi.*

Bugungi kunda globallashuv sharoitida g'arblik iste'mol madaniyati, virtual muhitdagi sun'iy go'zallik me'yorlari va axloqiy cheklovlarning yemirilishi yoshlari ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning natijasida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni estetik tarbiya orqali singdirish zarurati yanada ortmoqda. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov bu haqida shunday deydi: «*Ma'naviy bo'shliqni faqat qadriyatlarni bilan to'ldirish mumkin. Ular orqali jamiyatda barkamol avlod tarbiyasi ta'minlanadi*» [7].

Shuningdek, M.M. Hasanova: «*Axborot maydonida estetik vositalar bilan singdirilgan qadriyatlarni yoshlari qalbida ko'proq iz qoldiradi*», - deb ta'kidlaydi. Demak, qadriyatlar nafaqat tarbiya jarayonida, balki ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, teatr, kino va madaniyat markazlari orqali ham shakllanadi. Bunday vositalar orqali yoshlari ongiga axloqiy g'oyalar estetik obrazlar orqali singdiriladi.

Qadriyatlarni asosida axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib aytganda, axloqiy-estetik madaniyat jamiyatning ma'naviy yuksalishida, ayniqsa, yosh avlodning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu madaniyatning shakllanishi esa, avvalo, qadriyatlarni tizimiga, ularning teran anglanishiga va ongli ravishda hayotga tatbiq etilishiga bevosita bog'liqdir. Qadriyatlarni shakllantiruvchi ichki kompas ekan, milliy san'at va madaniyat muassasalarida tarbiyaviy dasturlarni faollashtirish; teatr, muzey, san'at galereyalari va madaniyat markazlarida

yoshlarga mo‘ljallangan qadriyat va estetik tarbiya yo‘nalishidagi loyihalar tashkil etish tavsiya etiladi.

Qadriyatlar faqat nazariy tushuncha emas, balki kundalik hayotda namoyon bo‘ladigan axloqiy mezon, estetik ifoda, madaniy tafakkur va ijtimoiy ong mahsulidir. Bu qadriyatlar san’at, adabiyot, urf-odatlar, oilaviy tarbiya va ta’lim tizimi orqali uzviy holda avloddan-avlodga o‘tadi. Ular nafaqat shaxsni, balki butun jamiyatni ma’naviy sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Demak, axloqiy-estetik madaniyatni mustahkamlash uchun qadriyatlar negizida barpo etilgan tizimli tarbiya eng muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarova N. Yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruvida tarbiyalash – davr talabi// «Nomoddiy madaniy meros va etnomadaniy qadriyatlar» konf. materiallari. – Toshkent: Navro‘z, 2014.
2. Hasanova M.M. Qadriyatlar va estetik ong uyg‘unligi// Pedagogika va psixologiya jurnali. 2022.
3. Bozorov O. Milliy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotdagi o‘rni// «Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati»: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2023.
4. Jo‘raev M. Axloqiy-estetik madaniyat va qadriyatlar. – Toshkent: O‘zR FA, 2019. – 140 b.
5. Nurmatova M.A. Axloqiy va estetik madaniyat. – Toshkent: Turon-iqbol nashriyoti. 2016,
6. Axmedova D.X. Estetik tarbiya va axloqiy qadriyatlar. – Toshkent: TDPU, 2020. – 96 b.
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.